

BUXORO ADABIY MUHITINING TABIBI VA JADIDI

Amonkeldi Axmatov,
t.f.f.d., dotsent Buxoro davlat universiteti
amonaxmatov@mail.ru

Аннотация: Ushbu maqolada Buxoro adabiy muhitida tabobat va zamonaviylik munosabatlari to'g'risida so'z yuritiladi. Tadqiqotning markaziy mavzulari orasida zamonaviy tibbiyot yutuqlari, ushbu mintaqa aholisi duch keladigan muammolar va muammolarni aks ettiruvchi adabiy asarlar tahlili mavjud. Asar badiiy adabiyot, jumladan, zamonaviy mualliflar va jadid shifokor-ijodkorlar asarlarini tahlil qilish, tibbiyot mavzularini zamonaviy Buxorodagi madaniy-ijtimoiy o'zgarishlar kontekstida o'rganishga asoslangan. Adabiy manbalar tahlili va tibbiyot va adabiyot sohasidagi tadqiqotlarga asoslangan ushbu asar hozirgi Buxorodagi tibbiyot amaliyoti va adabiy ijodning o'zaro ta'siriga yangicha ko'rinish beradi.

Kalit so'zlar: matematika va geografiya, adib, tibbiyot amaliyoti va adabiy ijod, madaniy-ijtimoiy o'zgarishlar, asbob-uskunalar, she'riyat, shifokor.

Mirzo Siroj Hakim Buxoriy (1877.23.10 – 1914.17.01) Taniqli ma'rifatparvar yozuvchi, shoir tarixchi, jurnalist tabib Buxoro shahrida savdogar, sarrof Mirzo Abdurauf oilasida tavallud topgan. Maktab ta'limi, axloq, tarix, she'r san'atlarini va arabcha lug'atlarga oid kitoblarni o'qiydi. Sarroflik qilish bilan birga rus tilini, matematika va geografiyani o'rganadi. Matbuot bilan tanishadi gazeta jurnallar o'qish asnosida turk tili, so'ngra fransuz tilidan lug'atlar yordamida savod chiqaradi. Shu yillarda she'r mashq qila boshlaydi. Savdo ishlari bilan shug'ullangan adib 1902-yil iyun oyida Yevropa safariga boradi: Krasnavodsk, Boku, Tbilisi, Batumi, Istanbul, Sofiya, Belgrad, Budapesht, Vena, Berlin Parij, London, Bern, Varshava, shaharlarini kezib, 1903-yil yanvar oyida Buxoroga qaytib keladi. Ma'lum vaqt o'tgach ikkinchi safarga chiqadi. Endiga yo'nalish Xuroson, Eronning Mashhad, Nishopur shaharlariga boradi sakkiz oy Sabzavorda qoladi. Keyingi hayoti Mashhad, Hirot, Ashxobod shaharlarida o'tadi. 1905-yil

iyunda Buxoroga qaytadi. Ma'lum vaqt Buxoroda qolgan adibning navbatdagi sayohati besh yil davomida Turkmaniston, Xiva, Bokuga boradi undan Eronga o'tib Yevropa tibbiyotini o'rganadi. Shifokor guvohnomasini (terapevt) olgan Mirzo Siroj Tehrondagi kasalxonada ishlay boshlaydi. 1905-1911-yillarda bo'lgan inqilob davrida Mirzo Siroj Tehronda bo'lib, vaziyat chigallashgach Hindistonga yo'l oladi. Bombay, Haydarobod, Dehli shaharlarida yashaydi. 1907-yil Eronda hukumat almashgach yana qaytadi va keyingi to'rt yil umrini Mozandaronda doktor Sobir nomi bilan shifokorlik qilib o'tkazadi. 1910-yil Buxoroga qaytgan Mirzo Siroj Yevropadan keltirilgan asbob-uskunalar bilan jihozlangan xususiy shifoxonasini ochdi. Shuni alohida takidlash kerakki bu vaqtda amirlikda tibbiyot masalasi ayniqsa malakali shifokorlarga ehtiyoj katta edi. Manbalarda keltirilishicha amirlikda ming kishiga bitta malakali shifokor to'g'ri kelgan [4,10-11]. Buxoro tarixi tadqiqotchisi D.N.Logofetning yozishicha bu vaqtda Buxoroda 1 shifoxona, 7 ambulatoriya, 5 ta apteka bo'lgan [2,142]. Ushbu dalillardan ayon bo'lyaptiki Mirzo Siroj Buxoro adabiy muhitidan yetishib chiqqan dastlabki jadid shifokori sifatida tibbiyotda yangiliklarni olib kirdi.

Tibbiyot bilan birga matbuotda "Buxoroyi sharif", "Turon" gazetalariga homiylik qilgan, "Oina" jurnalida maqolalari bilan muntazam ishtirok qilib turadi.

Mirzo Sirojning she'riyati haqida Nematullo Muhtaram "Tazkirat ush shuaro"sida ma'lumot beradi. Uning she'rlari asosiy g'oyasi milliy o'zlikni anglashga davat ko'rinishida bo'lib tarixdan xabardorligi uchun insonlarni o'tmish buyukligi bilan ruhlantiradi. Shoirning she'rlari ijtimoiy taraqqiyot g'oyalari bilan sug'orilganligi, ilm marifatni targ'ib qilishi, hayot haqiqatlarini oshkora aytishi, madaniy qadriyatlarga hurmati bilan alohida ehtiromga ega. Mirzo Siroj va uning safdoshlarining she'rlaridagi yangi uslub XX asr boshlarida adabiy jarayonlarga kiritilgan yangilik edi.

She'rning asosiy g'oyasi milliy o'zlikni anglash da'vat, tarixning ulug'ligini namoyon qilish, xalqning bilimsizligini jaholatdan qutqarish. XX asr adabiy jarayonida shoir she'riyati o'z o'rniga ega. Ijtimoiy taraqqiyotga tanqidiy, ilmga targ'ibot, madaniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adib “Tuhfai ahli Buxoro” asarida XX asr boshlarida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy vaziyat, ko’plab shaharlarga qilgan safarlari haqida ma’lumot beradi. “Tuhfai ahli Buxoro” asarning ifoda tabiati va ruhi ikki xil: biri muallifning Yevropaga qilgan sayohatlaridan namunali qarashlari va ijobiy taassurotlarining aksi, ikkinchisi - musulmon Sharq xalqlarining hayoti va turmush tarzi haqidagi tanqidiy nuqtai nazar va salbiy taassurotlar. Birinchi qismda muallif va asar bosh qahramonining ruhiy holati Axmad Donish sayohati qahramonining ruhiy holati bilan bir xil. Bu holat qahramonlarning Yevropaning rivojlangan mamlakatlariga safari taassurotlari va g’arb xalqlarining yangi madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotining yangi hodisalari haqidagi hayajoni va hayratidan kelib chiqadi. Ikkinchi bo’limda sharqqa sayohat voqealarini tasvirlashda bosh qahramon va uning muallifining ruhiy holati tushkun xarakterga ega bo’ladi. Muallifning nutqi va so’zlarining tanqidiy ohangi yanada kuchli va shiddatli tus oladi. Kitob to’rt qismdan iborat: Kirish; Arab dunyosiga sayohat; Afg’onistonga sayohat; besh yillik Eron, Hindistonga sayohat [6,239].

Asarda mamlakatning rivojlanish va yangi hayot hodisalarini shavfqatsizlarcha yo’q qiladigan mutaassib doiralarni qattiq tanqid ostiga oladi. Asar sodda ravon tilda yozilgan zamon ruhini to’liq aks ettirgan. Asar yangicha uslubda yozilgan bo’lib o’zidan oldingi safarnomalardan jurnalistik xarakter xususiyatga egaligi bilan farq qiladi. Fanga yangi so’z va atamalarni olib kiradi. Ahmad Donish va Shohin safarnomalaridan tarixiy qarashlari bilan ham farqlanadi. Mirzo Sirojning qarashlarida taqqoslash va tanqidiy ruh yuqoriligi jihatlari bilan Fitrat asarlariga yaqinroqdir. “Ilm-fan va boylik Yevropa millatining ishini qayerga olib borganiga qarang. Bizning ishimizning nodonligi va dangasaligi Osiyo xalqlarini past darajaga olib chiqdi! Ular barcha ilm-fanni egallashni xohlashlarining sababi nima?... Ammo biz to’g’ri yo’lni bilmaymiz. ... Umuman Yevropada bitta tilanchi va yolg’iz ishsiz odam ko’rinmaydi. Afsuski, holimizga voy! Parij atrofida qancha ko’p yurgan bo’lsam doimo qadrdon vatanimni eslaganimda shuncha ko’p yig’laganman”[3,8].

Asar orqali Buxoroning zulmatda qolgan odamlariga murakkab va ilg'or madaniy dunyoni ochib beradi. "Ushbu vaziyatni ko'rib, darhol o'z maktablarimiz va vayronalar ustida, iflos taxtalarda o'tirganimiz va savodsiz ustozlarimiz bolalarni g'azab bilan tutganimizni esladim. Men beixtiyor qayg'u va rashk ko'z yoshlarini to'kdim" [3,8]. Mirzo Siroj vafotiga Ayniy marsiya yozadi [1,12].

Xulosa qilib aytganda XX asr boshlarida davr she'riyati va nasrining tili soddalashadi, aksariyat shoirlar mutaassiblikning qiyinchiliklaridan voz kechishadi. Vatan va millat tushunchalari ko'proq ijtimoiy ma'noga ega bo'ladi. Adabiyotning milliy xususiyatlari kuchayadi va yozuvchilar millat taqdiri, bugungi kuni va kelajagini tasvirlay boshladilar, vatanparvarlik, mehnatsevarlikka chorladilar. Ushbu sa'y-harakatlar milliy o'zlikni anglashni shakllantirishga yordam berdi. Mirzo Siroj Hakimiy shunday yozadi:

Obodi in Vatan ba mo farz,
Boyadki, ado kunem in qarz.
Koshonai xud kunem obod,
Ruhi padaron shavand shod.
Az ishq majozy chashm po'shem,
Bo ishq haqiqy jon biko'shem.
Dar ahdi chunin amiri odil
Gashta hama boshand chu yakdil...
Rasmi ravishi vafo bigirem,
Dast az sitamu jafo bigirem.
Az shavqi zi gulshani guliston,
Go'yam bo xurush hazor doston.
Xezed ki vaqti ishq bozist,
Vaqti hunar astu sar farozist [5,114].

Mazmunan tarjima: Vatan obodligi bizlar uchun farz, bu ishni ado qilish ham bizlar uchun qarz. O'z koshonamiz (vatanimiz)ni obod qilib, otalar ruhini shod qilaylik. Majoziy ishqdan ko'z yumib, haqiqiy ishq (vatan ishq)ga qo'shish qilaylik. Odil amirimiz ahdi yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib xizmat qilaylik.

Vafo rasmu oyinlarini bajarib, jafо va sitamlarni yo'q qilaylik. Vatanni gulistonga aylantirib, uning ishqі tarannumidan iborat yuzlarchа dostonlar bitaylik. Turinglar, xursandchilik vaqti keldi, hunar o'rganish vaqti keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Айний С. Ашъори мунтахаб.нашриёти давлатии Тоҷикистон, Сталинобод. 1958. – Б. 12
2. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. В двух томах. Т. 2. СПб., 1911. С. 142.
3. Мирзо Сирожиддин Ҳаким. Тухфаи аҳли Бухоро. – Душанбе: Адиб, 1992. –Б. 8
4. Прибалтика и Средняя Азия в составе Российской Империи и СССР: Мифы современных учебников постсоветских стран и реальность социально-экономических подсчётов ; Куделя-Одабашьян М.Л.Туркестан в составе Советской России: проблемы со-циально–экономического и политического развития (октябрь 1917 года— ноябрь 1924 года). М., 2003. С. 10—11
5. Сафаров О. Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. Бухоро . Дурдона нашриёти, 2015. –Б. 114
6. Хўжақулов Сирожиддин. Адабиёти давраи бедории миллии тожик (Нимаи Дуюми Асри XIX ва Ибтидои Асри XX) Т.: «Миллий Энциклопедия», 2014. – Б 239